

“Tasdiqlayman”

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti rektori



O.Ruziyev

06.01.2026

**Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini puxta va sifatli ko‘rib chiqish, shaxsiy va sayyor qabullarning natijadorligini oshirish, ish yuritishni tizimli tashkil etish, tahlil va nazorat ishlarini samarali amalga oshirish bo‘yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

№	Chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Mas’ullar
1	Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlardan kechiktirmagan holda o‘rganib chiqishni ta’minlash.	Yil davomida	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi.
2	Rahbarlar tomonidan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini shaxsiy va sayyor qabullarini tashkil etish.	Tasdiqlangan jadvalga asosan	Rektor va soha prorektorlar
3	Murojaatlarni Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarorida belgilangan talablarga muvofiq ko‘rib chiqilishini ta’minlash, bunda ijrochi sifatida murojaatlar bilan ishlovchi xodimni bevosita mas’ul etib belgilanishiga butunlay chek qo‘ygan holda, ularda ko‘tarilgan masalalarni tegishli tarkibiy bolinmalarning mutaxassisleri tomonidan ijro etilishini qat’iy ta’minlash.	Doimiy	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi va tegishliligi bo‘yicha tuzilma rahbarlari
4	Institutning kompleks va maqsadli o‘rganish bo‘yicha 2026-yil ish rejasi doirasida murojaatlarni o‘z vaqtida samarali ko‘rib chiqilishi yuzasidan maqsadli o‘rganishlarni tashkil etish va ularga amaliy yordam ko‘rsatish.	Yil davomida tasdiqlangan jadvalga asosan	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi

5	Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqishda mas'uliyatsizlik va sansalorliklarga yo'l qo'ymaslik hamda murojaatlarni takroriy ravishda kelib tushishini oldini olish choralarini ko'rish.	Yil davomida	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi va tegishliligi bo'yicha tuzilma rahbarlari
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlarning ijobiy hal etilishi darajasi va natijadorligini oshirish, bunda murojaatlarni tezkorlik bilan muallif ishtirokida o'rganilishini ta'minlash, hal etishda yuzaki yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik.	Yil davomida	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi va tegishliligi bo'yicha tuzilma rahbarlari
7	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlarni uch yilda kamida bir marta malakasini oshirish choralarini ko'rish.	Reja asosida	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi, Xodimlar bo'limi
8	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishning ahvolini tahlil qilish, umumlashtirish va Apparat Kengashi yig'ilishlarida muhokama qilish.	Yil davomida har hafta	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi
9	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalarini tahlil qilib, amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida axborotni; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Murojaatlar bilan ishlash bo'limiga taqdim etish.	Har chorak yakunida	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi.